

JADIDLARNING DARSILIKLAR YARATISH FAOLIYATIGA OID AYRIM

MULOHAZALAR

Axrorov Ixtiyor Donyorovich

Bux DPI o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvarlarining darsliklar yaratishga oid faoliyatlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Darsliklar ko'p yillik pedagogik, psixologik izlanishlar, ilg'or tajribalar hamda jahon standarti namunalari asosida tuzilgan bo'lishi lozim. Xususan, boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan darsliklarning tili sodda, ravon va tushunarli, o'quvchi yoshi hamda psixologik xususiyatiga mos bo'lishi, ularning nutqi va dunyoqarashining o'sishiga yordam berishi kerak. Darsliklardagi har bir mavzu o'zidan oldingi mavzuni to'ldirib, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishi zarur. U o'quvchilarga odob-axloqni o'rgatishga xizmat qilishi, ularda onavatanga mehr-muhabbat, kishilarga g'amxo'rlik, mehribonlik, iltifotlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, vijdonlilik kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi.

Darslikning yana bir muhim tomoni shundaki, u o'quvchilarga muayyan darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf darsliklaridagi har bir she'r, masal, ertak, hikoyalar qiziqarli bo'lib, bir maqsadga, ya'ni, jamiyatda barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Shu bilan bir qatorda, ular o'quvchi-yoshlarda ruhan tetiklik, aqlan komillik, axloqan poklikni ta'minlashi lozim.

Ta'limning muhim o'quv vositasi sifatida darsliklarning ahamiyati beqiyosdir. Uning rivojlanish tarixini o'rganish, eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda darsliklarning dastlabki nusxalari yaratila boshlanganligini ko'rsatadi.

Ma'rifatparvarlarning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Akbarzoda G'ulomiddindir. Uning «ta'limi soniy» deb nomlangan darsligi bo'lib, u 1913 yil Toshkentda, g'ulom Hasan Orifjonov matbaasida nashr qilingan.

Risola barkamol insonni voyaga yetkazish, uni tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan. Unda qiziqarli hikoyalar orqali, bolalar odob-axloqqa o'rgatiladi. Ushbu kitob maktab bolalariga «odobnoma» darslarida asqotadi. Risolada ilmiy ma'lumotlar bilan bir qatorda yil, oylarning hafta hisobi, yil fasllarining ota-bobolarimiz qo'llab kelgan nomlari va boshqa tarixiy ma'lumotlarga ham keng o'rin ajratilgan.

1-bob «olam» deb nomlanib, unda olloh yaratgan mahluqotlar ichida onglisi odam ekanligi, u o'zining ilmi, ongi bilan ajralib turishi aytiladi. 2-bob «ilm» bo'lib, unda ilm hayot, tiriklikdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. 3-bob «ilmsiz jon», 4-bob «ilmsiz hayot», 5-bob «ilmsiz millat,

<https://conferencea.org>

din», 6-bob «din odobining sababi», 7-bob «ilm foydasi» deb nomlanib, qayd etilgan boblarda ilmning inson hayotida tutgan yuksak mavqei yoritiladi. U o'z qarashlarini ari, asalari, shamol, kun, o'tinchi, yo'lbars, tulki, bo'ri va shu kabi timsollar orqali ifodalashga harakat qiladi. Har bir hikoya nihoyasida qissadan- hissa chiqariladi va matnga mos to'rtlik yoki bayt keltiriladi. Darslikdagi hikoyalar krilovning masallariga o'xshaydi. Hayvonlar obrazi orqali, odamlarning xarakter xususiyatlari ochib beriladi.

Darslikda «fanniy ma'lumotlar» deb sarlavha qo'yilib, jadval orqali o'quvchilarga yil hisobi haqida ma'lumot beradi. «fasllar», «fasllarning tabiati», «asrlar» nomli mavzularda yil, kun, hafta, fasllar, hatto asrlar haqida ham o'quvchilarga to'liq ma'lumotlar berilgan. Unda yil, kun, hafta, fasllarning arabcha, forsha, turkcha, ruscha nomlari jadval asosida berilgan.

Muallif darslikka insondagi axloqiy xususiyatlarni ochib beruvchi «pand», «yamon xo'ylar», «yaxshi xo'ylar» nomli hikoyalarni kiritadi.

Toshkentda esa Abduvahob Ibodiev (1877-1943)ning «tahsil-ul alifbo» (alifbo o'qishi) darsligi tahsinga sazovordir. Ushbu darslik 1912 yilda toshkentda nashr qilingan. Darslik o'quvchilar uchun harflarni o'rganish, savod chiqarishda katta ahamiyatga ega. A.Ibodievning yuqoridagi darsligidan tashqari o'qituvchilar foydalanishlari uchun yozilgan «e'tiqodi islomiya» («islom e'tiqodi») risolasi ham mavjud bo'lib, u 1914 yilda toshkentda chop etilgan.

Mirzo Hayrullo va Abdullaxon Ibodiyarning «miftoxul alifbo» (1912), «taxsiliy avval» (1914), muxtor bakirning «savod» (1913), a.zohiriyning «imlo» (1916) singari darslik va o'quv qo'llanmalari 1917 yil to'ntarishigacha yaratilgan.

Ma'rifatparvar pedagog Saidrizo Alizoda (1887-1945) ilk tahsilni samarqandning chorraha dahasida abulqosim alganjiyning jadid maktabida olgan. Jadid maktablari uchun «ilmi hisob» (samarqand, 1906) darsligini tuzgan [167;423].

O'zbek shoiri, tarjimon va hattot sifatida tanilgan Almaiy (fazlulloh mirjalol o'g'li (1851-1894) ning «azvon ul-jumu'» («vaznlar jam'i») nomli she'riy asari ba'zi arab mamlakatlarida darslik vazifasini o'tagan.

Munavvarqori Abdurashidxonov 1917 yilda geografiyaga oid «er yuzi» darsligini chop ettirdi, u jadid maktablarining 3-4-sinflar o'quvchilariga geografiyadan dars berishga mo'ljallangan ta'lim vositasidir. Darslikda, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, dunyo davlatlari, ularning geografik o'rni, aholisi, poytaxti, davlat tili, dini va milliy tarkibiga taalluqli qiziqarli ma'lumotlar ifoda etilgan.

Muallif darslikda xx asr boshlaridagi dunyoning geosiyosiy manzarasini juda aniq tasvirlagan. Undan o'sha davrning yirik, rivojlangan, mustamlakachi va mustamlaka davlatlar geografiyasi, ularga xos geosiyosiy vaziyatlar haqida ayrim muhim ma'lumotlarni bilib olish mumkin. Masalan: u buyuk britaniya haqida «shimoliy ovro'padagi hukumatlarning to'rtinchisi anglatara (buyuk britaniya) qirolligidir. Bu mamlakat bahri muhiti atlasda (atlantika okeani

<https://conferencea.org>

havzasidagi) britaniyo, irlandiyo va shotlandiyo kabi bir necha ata(orol)lardan iboratdur... Anglatara hukumati mamlakatning kengligi (ko'plab mustamlaka yerlarining mavjudligi) va aholisining ko'pligi urush va suro popoxo'dlarining ko'pligi ila dunyoning eng ulug' va zo'r hukumatidir. Besh qit'aning har birida mustamlakasi vor...», deb o'sha davrning qudratli davlati haqida aniq ma'lumot keltiradi.

Darslikning muhim jihatlaridan biri uning bolalar yoshiga mos o'ta jo'n tilda yozilganidir. Masalan, unda geografik atlasga shunday ta'rif berilgan: «bir necha xaritalarni yig'ib daftar qiling'on bo'lsa, atlas deyilur». Atlasning ushbu qisqa va sodda ta'rifi bugungi kunda ham mohiyatan o'zgargani yo'q.

Sadriddin Ayniyning ushbu darsligi yangi usul maktabida tarbiyalanuvchi qizlar uchun tuzilgan edi. Darslik o'zbek maktabi va pedagogikasi tarixini o'rganishga yordam beruvchi manbalardan hisoblanadi. Muallif, o'quvchi qizlarga murojaat qilib, «agar siz ilmli, adabli va axloqli bo'lsangiz, otangizni, onangizni, og'a-iningizni va butun elu-ulusingizni quvontirasiz, agar adabsizlik qilsangiz, barchani xafa qilasiz va qayg'uga solasiz», deydi. Bu chaqiriq bilan, pedagog s.ayniy, o'quvchi qizlarning o'qib bilim olishigagina emas, balki ularning axloqiy tarbiyasiga ham katta e'tibor qaratadi va o'quvchilar uchun qoidalar yaratadi.

Darslikdagi bosh qahramon xolida ismli qiz bo'lib, muallif xolida orqali o'lkadagi qizlarning taqdiri, o'z xalqi uchun jonkuyar inson bo'lib yetishishlarini ifoda etadi. O'quv qo'llanmadagi ikkinchi qahramon fotima xolida obraziga qarama-qarshi qo'yiladi. Fotima odobli, o'zining kamtarligi, bilim olish saviyasining yuqoriligi bilan maktab o'quvchilariga o'rnak hisoblanadi. Yozuvchi darslikda mehnat tarbiyasini ilgari suradi, axloq, nafosat odobiga katta e'tibor beradi. Xolida «...menga xat va savod olib beringlar, men ham kitobni o'qiy olayin» deganda, otasi xat va savod bozorda bo'lmasligi, xat-savod o'rganish uchun maktabga borish, qunt bilan o'qish kerakligini tushuntiradi.

Darslikning «xolida o'z kiyimlari bilan maqtanadur», «xolida shohi va baxmal kiyimlarini sug'urib tashlaydur» «xolida bugun sabog'ini o'rganadur», «shul matal», «qo'y bilan qo'zi», «qo'y o'z qo'zisi uchun jonini fido qiladi» boblarida maktab hayoti, dars jarayonlari tasvirlanadi. Muallif saboq berish jarayonida muallimaning o'z shogirdlariga mehr ko'zi bilan qarashini oddiy tilda bayon etadi, muallimani namuna qilib ko'rsatadi. «xolidaning maktabdagi ahvoli» bobida s.ayniy yo'l harakati qoidalariga e'tiborni qaratadi. «sog'liqni saqlamoq kerak» va «sog'liqni saqlash yo'llari» boblarda muallif tozalik, gigiena, ovqatlanish rejimi, suvni qaynatib ichish kerakligi, sovuq suvga cho'milmaslik lozimligini nasihat qiladi.

Pedagog o'zbek xalqida kishilar o'rtasidagi o'zaro mehribonchilikning katta o'rin tutishini uqtirib, o'quvchi yoshlarni ham shu ruhda tarbiyalash kerakligini ta'kidlaydi. Darslikda jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor qaratiladi. Bolalarni badan tarbiya bilan shug'ullanishga, suvda suzishga, chaqqon, epchil bo'lib o'sishga chaqiradi. Darslikning navbatdagi «xolidaning

<https://conferencea.org>

kitabxonasi» va «mashhur xotunlar» boblarida muallif kutubxona ishini tashkil qilish, kitob kartotekalaridan foydalanish yo'llarini yoritadi. Darslikning oxirigi bobi «muallim va muallimalarg'a bir-ikki so'z» deb atalib, unda muallif muallimlarga maslahat va ko'rsatmalar beradi. Muallif har bir darsni tabiat bilan bog'lab, uning sir-asrorlarini o'quvchilarga anglatishni o'qituvchining muqaddas vazifasi deb biladi. Muallimlarga darslikda uchraydigan qiyin so'zlarni bolalar tilida oddiy qilib tushuntirish lozimligini uqtiradi.

Ushbu o'quv qo'llanma orqali jadidchilik davrida yoshlarni savodli kishilar qilib tarbiyalash eng asosiy masala hisoblanganligiga amin bo'lamiz. Eng asosiysi, darslik o'quvchilarda kitobga bo'lgan muhabbatni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi zamon yangi avlod darsliklarining shakllanishida jadid ma'rifatparvarlari tashabbusi va zahmatlari asosida yaratilgan o'quv qo'llanmalarining nazariy ahamiyati cheksizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.T. Khoja o'g'li, K H Ahmadovich Advanced Characteristiks of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature. Amerikan Journal of Social and Humanitarian Research 3 (9).1-4.

2.K K Akhmadovich, NS Ubaydullayevna THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL INTEGRATIONS IN THE FORMATION OF INDEPENDENT WORK IN PRIMARY GRADES.Conferencea, 66-75..

3.K K Akhmadovich, O B Togmurodovich NEW STAGES AND PRACTICAL CONDITIONS FOR CREATING NATIONAL TEXTBOOKS AND ALPHABET BOOKS.Conferencea, 54-58.

4.K K Akhmadovich, SG Badriddinnovna THE CONCERT OF READING, SPECIAL FEATURES OF CHILDREN'S READING E Conferencea,28-33.

5.KK Akhmadovich, N O Alisherovna THE AESTHETIC VALUE OF LINGUISTIC FLORIONYMS IN WORKS OF ART IN AROUSING LAUGHTER 59-63.

6.K K Akhmadovich, O B Togmurodovich THE ISSUE OF THE CONTENT OF EDUCATION IN THE HISTORY OF THE PEOPLES OF THE EAST Conferencea, 95-101.

7.K K Akhmadovich, S G Badriddinovna HISTORICAL GENESIS OF UZBEK CHILDREN'S READING, PRINCIPLES OF DEVELOPMENT AND AESTHETIC EXPE=RESSION OF NATIONALITY IN THEM E Conference Zone, 47-51.

8.K K Akhmadovich, N O Alisherovna THE PROBLEM OF AROUSING LAUGHTER IN UZBEK PROSE BASED ON LINGUISTIC FAUNIMS Conference 90-94.

Адизова Н., Ибрагимова Ф. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilimini baholashda pirls dasturi //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 106-111.

<https://conferencea.org>

Адизова Н., Мустафаева О. Noan'anaviy ta'lim texnologiyalari asosida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini tashkil etish //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 4/S. – С. 344-349.

Adizova N. B., Ibragimova F. EFFECTIVE MEASURES FOR DEVELOPING THE PROCESS OF NATIONAL EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY //Open Access Repository. – 2022. – Т. 9. – №. 04. – С. 130-133.

Adizova N. B., Husenova D. TECHNOLOGICAL APPROACH TO THE ORGANIZATION OF PRIMARY EDUCATION FACTOR OF EDUCATIONAL EFFICIENCY //Open Access Repository. – 2022. – Т. 9. – №. 04. – С. 126-129.

Adizova N. B., Nusratova S. THE ESSENCE OF MODULE EDUCATION IN TEACHING PRIMARY SCHOOL STUDENTS TO INDEPENDENT THINK //Open Access Repository. – 2022. – Т. 9. – №. 04. – С. 134-137.

Adizova N. BOSHLANG 'ICH SINF O' QUVCHILARIDA KREATIV FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK VOSITALARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2.

Jumayev, Ruzokul. "Sadridin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).

Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АРАБЧА ТОПОНИМЛАР." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).

Xoliqulovich J. R. SADRIDDIN AUNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliqulovich Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 34-37..

Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Using anthropometric units in" Esdaliklar" by Sadridin Ayniy." European Journal Of Innovation In Nonformal Education 2.2 (2022): 295-298.

9. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARN TASHKIL QILISH-TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA." PEDAGOGS jurnali 1.1 (2022): 52-53.

10. Bakhtiorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "BASIC PRINCIPLE OF PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGY." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI 2.10 (2022): 296-298.

11. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI 2.1 (2022): 513-516.

<https://conferencea.org>

12 Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).

13. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).

14. Адизова, Нодира Бахтиёровна. "АТОҚЛИ ОТЛАРДА ЯСАЛИШИНИНГ БИР УСУЛИ." Scientific progress 2.7 (2021): 1003-1009.

15. Bakhtiyorovna, A. N., and A. N. Bakhtiyorovna. "The role of oikonyms in microtoponymis of Bukhara district." Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 41-43.

16. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira. "Boshlang 'Ich Sinf Ona Tili Va O 'Qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta'minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi." Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences. 2023.